



Phraseological lacunae in Internet social networks and their reflection in translation

Mokhigul ABDULLAEVA ¹

Andijan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2025

Received in revised form

10 August 2025

Accepted 25 August 2025

Available online

15 September 2025

Keywords:

phenomena,
phraseological units,
speech,
generalized meaning,
lexical-semantic unit,
metaphor,
paradigm.

ABSTRACT

The 21st century is an era of advanced technologies and globalization, the development of which is closely tied to the widespread use of the Internet. The Internet has become not only a means of information exchange for humanity but also a platform for new social interactions and cultural transformations. Its emergence and rapid growth have fundamentally changed human communication, giving rise to new forms of electronic discourse. In today's world, the Internet - especially through social networks - significantly influences language, leading to the creation of new words, expressions, and phraseological units. This phenomenon attracts considerable interest for linguistic research, as it reveals distinctive new features of language, including the emergence of phraseological lacunae.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss7/S-pp164-169>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Internet ijtimoiy tarmoqdagi frazeologik lakunalar va ularning tarjimada aks etishi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

hodisalar,
frazeologik birliklar,
nutq,
umumlashtirilgan ma'no,
leksik – semantik birlik,
metafora,
paradigma.

XXI asr – ilg'or texnologiyalar va globallashuv davri bo'lib, uning rivojlanishi bevosita Internetning keng tarqalishi bilan bog'liq. Internet insoniyat uchun nafaqat ma'lumot almashish vositasi, balki yangi ijtimoiy munosabatlar va madaniy o'zgarishlar platformasiga aylandi. Uning paydo bo'lishi va jadal rivojlanishi odamlarning bir-biri bilan o'zaro aloqasini tubdan

¹ Researcher, Andijan State Institute of Foreign Languages.

E-mail: mokhigula@webster.edu

o'zgartirib, elektron muloqotning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Zamonaviy dunyoda Internet, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar vositasida tilning o'zgarishiga, yangi so'zlar, iboralar va frazeologik birliklarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa lingvistik tadqiqotlar uchun katta qiziqish uyg'otadi, chunki bu jarayonlarda tilning o'ziga xos yangi xususiyatlari, jumladan, frazeologik lakunlar yaqqol namoyon bo'ladi. Aynan ana shu lakunlarning ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'lishi va ularning zamonaviy texnologiyalar, xususan, avtomatik tarjima dasturlaridagi aks etishiga ahamiyat salmoqli hisoblanadi.

Фразеологические лакуны в социальных сетях Интернета и их отражение в переводе

Ключевые слова:

явления,
фразеологические
единицы,
речь,
обобщённое значение,
лексико-семантическая
единица,
метафора,
парадигма.

АННОТАЦИЯ

XXI век — эпоха передовых технологий и глобализации, развитие которой напрямую связано с широким распространением Интернета. Он стал для человечества не только средством обмена информацией, но и платформой формирования новых социальных отношений и культурных изменений. Появление и стремительное развитие Интернета кардинально изменили взаимодействие людей, породив новые формы электронной коммуникации. В современном мире Интернет, особенно через социальные сети, оказывает значительное влияние на язык, способствует формированию новых слов, выражений и фразеологических единиц. Это вызывает особый интерес у лингвистов, поскольку именно в этих процессах наиболее ярко проявляются новые особенности языка, в частности фразеологические лакуны. Их появление в социальных сетях и отражение в современных технологиях, в особенности в системах автоматического перевода, представляет собой серьёзную проблему.

Frazeologik birliklar tilning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular orqali so'zlashuvchi xalqning madaniy merosi, turmush tarzi va dunyoqarashi namoyon bo'ladi. Ushbu barqaror so'z birikmalari nutqning ifodaliligi va ta'sirchanligini oshirish bilan birga, milliy tafakkurning o'ziga xos xususiyatlarini ham ifoda qiladi. Shu bois XX asr boshlaridan boshlab frazeologiya tilshunoslarning diqqat markaziga tushdi va ilmiy tadqiqot obyektiga aylandi.

Rus olimi V.V.Vinogradov 1920-yillarda frazeologiyani mustaqil lingvistik bo'lim sifatida ajratib ko'rsatib, uning predmeti va hajmini aniqlab berdi. Uning asarlarida frazeologik birliklar tasnifi, ularning semantik va uslubiy xususiyatlari, shuningdek, umummilliy tilning leksik boyligida tutgan o'rni keng yoritildi. Keyinchalik A.V.Kunin, B.A.Larin, N.N.Amosova kabi olimlar mazkur yo'nalishni rivojlantirib, frazeologizmlarning lug'atchilik, tarjima va tilshunoslik nazariyasidagi ahamiyatini chuqur o'rgandilar.

O'zbek tilshunosligida esa Sh. Rahmatullaev frazeologik birliklarning ilmiy tasnifini berdi va ularning milliy madaniy o'zlikni ifodalashdagi o'rniga alohida urg'u qaratdi. Shu tariqa, frazeologiya nafaqat tilning alohida qatlami, balki xalqning ma'naviy merosini saqlab qoluvchi muhim vosita sifatida ham qaraladi.

Hozirda "frazeologiya" atamasi tildagi frazeologik birliklar to'plamiga yoki ularni o'rganuvchi fanga nisbatan ishlatiladi. Olimlar bu birliklarni tasniflash uchun turli mezonlarni taklif etishgan. Xususan, frazeologizmlarning etimologik kelib chiqishini o'rganish ularning asl ma'nosini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Bu sohadagi tadqiqotlar V.V.Vinogradovdan tashqari, L.P.Smit, A.V.Kunin, B.A.Larin kabi xorijlik va Sh.Rahmatullaev, A.E.Mamatov kabi o'zbek tilshunos olimlari tomonidan ham chuqur o'rganilgan.

Frazeologik birliklar - bu so'zlar yoki so'z birikmalaridan tashkil topgan, tarkibiy jihatdan barqaror va umumiy ma'noni anglatuvchi leksik-semantik tuzilmalar hisoblanadi. Ular nutqning ta'sirchanligini va ifodaliligini ta'minlaydi, shu bilan birga ko'p hollarda boshqa tillarda ham o'xshash ekvivalentlarga ega bo'ladi. Biroq ayrim holatlarda ularning to'liq muqobili topilmaydi. Bunday hodisa tilshunoslikda frazeologik lakuna deb yuritiladi (lot. lacuna — bo'shliq). Masalan, o'zbek tilidagi "to'ng'ich bola" iborasi ingliz tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinganda "the first child" sifatida ifodalanadi. Lekin bu yerda milliy madaniy xususiyatlar va konnotativ ma'no yo'qolib ketadi. Xuddi shunday, ingliz tilidagi "spill the beans" frazeologizmi ("sirni ochib qo'ymoq") o'zbek tilida tayyor ibora sifatida mavjud emas.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni tadqiq etgan olimlardan biri Sh. Raxmatullaev hisoblanadi. U frazeologik birliklarni semantik xususiyatlariga ko'ra uch guruhga ajratadi: 1) frazeologik yaxlitlik; 2) frazeologik aralashma; 3) frazeologik kirish birliklar.

Olimning ta'kidlashicha, ayrim iboralarning ma'nosi ularni tashkil etuvchi so'zlarning lug'aviy ma'nosiga bog'liq bo'lmaydi. Masalan, ingliz tilidagi to stitch before the wedding yoki earthly sky kabi iboralar tarkibiy qismlari orqali anglab bo'lmaydigan ma'noga ega. Shu sababli ular frazeologik yaxlitlik sifatida qaraladi.

Frazeologik lakunalar tillararo tarjimada katta qiyinchilik tug'diradi. Ayniqsa, internet ijtimoiy tarmoqlarida milliy frazeologizmlar ko'p qo'llaniladi: a) memlar; b) qisqa postlar; c) sharhlar; d) xeshteglar.

Masalan, o'zbek segmentida "tepadan tushgan qaror" yoki "choyxonadagi gap" kabi iboralar tez-tez uchraydi. Lekin ular avtomatik tarjimada ma'no yo'qotadi:

- "tepadan tushgan qaror" → the decision fell from above (Google Translate – ma'noda noaniqlik yuzaga keladi).

- "choyxonadagi gap" → talk in a teahouse (asil mazmun yo'qolib, konnotativ ma'no saqlanmaydi).

Ingliz tilida esa shunga o'xshash holatlar kuzatiladi:

- break a leg – "omad tilash" ma'nosida qo'llaniladi, ammo tarjimada "oyog'ini sinidir" ko'rinishida chiqishi mumkin.

- the ball is in your court – "navbat senda" degan ma'noni anglatadi, lekin avtomatik tarjimada sport bilan bog'liq ma'noda tushuniladi.

Avtomatik tarjimada uchraydigan muammolar:

1) Semantik yo'qotish – iboraning ko'chma ma'nosi saqlanmaydi;

2) Kulgili yoki noto'g'ri tarjima – ibora to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinib, ma'naviy mazmun buziladi;

3) Kontekst yo'qligi – ijtimoiy tarmoqlarda qisqa, ironiyali matnlar ko'p bo'lgani uchun, avtomatik tarjima ularni to'g'ri anglay olmaydi.

Yechimlar. Frazelogik korpuslar yaratish – turli tillardagi frazeologizmlar bazasini tuzish va tarjimon dasturlariga integratsiya qilish.

Neyron tarjima modellarini takomillashtirish – korpuslar va real vaqt kontentlari bilan boyitish.

Madaniy adaptatsiya usuli – to'g'ridan-to'g'ri tarjimadan ko'ra ma'noni saqlab, o'sha tilga mos ibora bilan ifoda etish. Masalan: spill the beans → “sirni ochib qo'ymoq”.

Ijtimoiy tarmoqlardagi misollarni tahlil qilish – tarjima dasturlarini faol qo'llanilayotgan kontent asosida o'rgatish.

So'zning to'g'ri yoki ko'chma ma'nolari ko'pincha turli birikmalar tarkibida namoyon bo'ladi. Masalan, the door to the house (uyning eshigi) iborasida so'z o'zining to'g'ridan-to'g'ri ma'nosini ifoda etadi, sour fruits birikmasi qisman ko'chma ma'no kasb etadi, sour nonsense esa to'liq ko'chma ma'noda “bema'nilik” ma'nosida ishlatiladi. Bu misollardan ko'rinadiki, frazeologik birliklar tilning nafaqat grammatik tuzilishida, balki ma'noiy va uslubiy qatlamlarida ham muhim o'rin tutadi. Ular orqali so'zlovchi muayyan emotsional ta'sirga erishadi, ma'nolarni kuchaytiradi va nutqni jozibador qiladi.

Ingliz tili frazeologiyasi boy va ko'p qirrali tarixga ega bo'lib, unda xalq og'zaki ijodi, adabiy asarlar va turli madaniy jarayonlar o'z ifodasini topgan. Masalan, ingliz tilidagi ko'pgina idiomalar Bibliya, qadimiy mifologiya yoki Shekspir asarlariga borib taqaladi. Bu holat frazeologizmlarning faqatgina tilshunoslik emas, balki madaniy va sivilizatsion merosning ham bir qismi ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, ingliz frazeologiyasida qo'llaniladigan birliklarning katta qismi ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari va siyosiy-iqtisodiy diskurs ta'sirida yangilanib boradi. Masalan, so'nggi yigirma yilda paydo bo'lgan fake news, breaking point, red line kabi iboralar zamonaviy frazeologik qatlamning shakllanishiga misol bo'la oladi. Frazelogik birliklarning o'rganilishi masalasida Ye.D.Polivanov ularning leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etgan bo'lsa, A.V.Kunin ilmiy jihatdan turlarga ajratib, tarkibiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan. G'arb tilshunosligida esa ko'p hollarda frazeologizmlar “idioma” tushunchasi doirasida qaralib, ularning kelib chiqishi va semantik taraqqiyoti yetarlicha tahlil qilinmagan holatlar uchraydi. Shu bois, zamonaviy tilshunoslikda frazeologizmlarni keng qamrovli lingvomadaniy kategoriya sifatida o'rganish zaruriyati ortmoqda. Shu bilan birga, frazeologizmlarning kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan tahlili ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki ular orqali millatning dunyoqarashi, tafakkuri va konseptual kategoriyalari namoyon bo'ladi. Masalan, “time is money” kabi ibora ingliz xalqi madaniyatida vaqtning iqtisodiy qadriyat sifatida qabul qilinishi bilan bog'liq. O'zbek tilida esa vaqt ko'proq sabr-toqat, intizorlik va hayotiy tajriba bilan bog'lanadi.

Frazelogik birliklarning avtomatik tarjimadagi aks etishi esa alohida muammo hisoblanadi. Mashina tarjimasi ko'p hollarda ularni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qiladi va natijada iboraning ma'naviy-uslubiy qirralari yo'qoladi. Shu bois zamonaviy tilshunoslikda frazeologizmlarning kompyuter lingvistikasi vositalari orqali aniqlanishi va ular uchun kontekstual muqobillarni topish masalasi muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Frazelogik birliklar tilning ma'noiy va uslubiy qatlamlarini boyituvchi muhim vosita hisoblanadi. Ular orqali xalqning tarixiy tajribasi, madaniy an'analari va milliy

dunyoqarashi ifodalanadi. Shu bois ularni o'rganish masalasi tilshunoslikning faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Bir tomondan, frazeologizmlar nutqning ifodadorligini ta'minlaydi, ma'noga emotsional va ekspressiv qirra qo'shadi. Ikkinchi tomondan, ular tarjimada katta muammolarni keltirib chiqaradi, chunki ko'pgina frazeologizmlar madaniy bog'liqlikka ega bo'lib, boshqa tillarda ularning to'liq ekvivalenti topilmaydi. Shu nuqtai nazardan, frazeologik lakunalar tillararo muloqotda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tilshunos olimlarning ko'plab ishlarida qayd etilganidek, frazeologizmlarning semantik qatlamlari turli darajada ifoda topadi. Masalan, ba'zi iboralarda so'zlar ma'no jihatdan o'zining to'g'ridan-to'g'ri qimmatini saqlab qolsa, boshqalarida ular butunlay ko'chma ma'noga aylanadi. Bu holat tilshunoslar tomonidan "fazeologik yaxlitlik", "fazeologik aralashma" yoki "fazeologik birlashma" kabi turlarga ajratib izohlanadi. Shu bilan birga, global kommunikatsiya jarayonlari va internet tarmoqlarining ommalashuvi frazeologik birliklarning qo'llanilishi va ularning tarjimadagi qiyinchiliklarini yanada kuchaytirdi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan memlar, xeshteglar va qisqa postlar milliy xususiyatlarga boy frazeologizmlarni o'z ichiga oladi. Lekin avtomatik tarjimon dasturlari ularni to'g'ri anglay olmaydi va ko'p hollarda to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilib yuboradi. Natijada, iboraning leksik shakli saqlansa-da, uning mazmun-mohiyati yo'qoladi.

Shu jihatdan, zamonaviy lingvistikada avtomatik tarjima dasturlarini takomillashtirishda frazeologik korpuslar tuzish, ularni neyron tarjima modellariga integratsiya qilish va madaniy adaptatsiya usullarini ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi. Bu orqali ijtimoiy tarmoqlarda tillararo muloqot samaradorligini oshirish mumkin bo'ladi.

Fazeologik birliklar nutqning mazmundorligi va ta'sirchanligini Internet ijtimoiy tarmoqlarda frazeologik lakunalarning mavjudligi tillararo muloqot jarayonida jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi. Bunday lakunalar milliy madaniy qadriyatlar, urf-odatlar va kundalik nutq uslublari bilan uzviy bog'langani uchun ularni avtomatik tarjimonlar orqali to'liq va aniq aks ettirish qiyin kechadi. Shuningdek, tarjimada frazeologizmlarning ma'nosi yo'qolishi, ularning mos kelmaydigan tarzda ifodalanishi yoki kulgili hamda tushunarsiz holatlarning paydo bo'lishi kuzatiladi. Avtomatik tarjimadagi ushbu muammolar faqat texnik jihatlar bilan emas, balki tilning semantik va pragmatik qatlamlari bilan ham bog'liq. Shunday ekan, ijtimoiy tarmoqlarda tillararo muloqot samaradorligini ta'minlash uchun avtomatik tarjima tizimlarini takomillashtirishda frazeologik korpuslardan foydalanish, madaniy adaptatsiya usullarini joriy qilish va neyron modellarni kontekstual ma'nolar asosida boyitish dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu tariqa, internet muhitidagi frazeologik lakunalarni ilmiy jihatdan o'rganish va ularning avtomatik tarjimada aks etishini samarali yo'lga qo'yish nafaqat tarjimaning aniqligi, balki global axborot almashinuvining mazmundorligi va ta'sirchanligini ta'minlashda ham katta ahamiyat kasb etadi. Kelgusida avtomatik tarjimini takomillashtirish jarayonida frazeologik birliklarning elektron korpuslarini yaratish, ularni kontekstual asosda anglay oladigan algoritmlar bilan ta'minlash va madaniy adaptatsiyani hisobga olish muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Bu orqali ijtimoiy tarmoqlarda tillararo muloqot samaradorligi ortadi, global axborot almashinuvi esa yanada mazmundor va ta'sirchan tus oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Salomov G'. Til va tarjima. - Toshkent: "Fan", 1966.

2. Musayev Q. Badiiy tarjima va nutq madaniyati - T., 1996

3. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка: Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. 2-е изд., перераб. М.: Высшая школа, Дубна: Изд. центр «Феникс», 1996

4. Semantic structures of English phraseological units and proverbs with proper names. Dissertation paper. SamSIFL. N.Ochilova. 2014

5. Бушуй А.М. Сущность языка как проблема общей лингвистики. Тексты лекций. – Самарқанд: СамГИИЯ, 2004

6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Frazeologizm>.

7. <https://journal.fledu.uz/>

8. <https://in-academy.uz/>